

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVY-AXLOQIY
TARBIYALASHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING AHAMIYATI HAMDA
INNOVATSION METODLAR TATBIG'I**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning zaruriyati hamda mavjud bo'lgan metodlar tatbig'i ilmiy yoritilgan, 260il ava maktab hamkorligida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, maktabdan tashqari ishlar, barkamol inson, kasb-hunar, farosat, ruhiy sog'lom muhit, insoniylik. Oilaviy tarbiya, o'zaro hamkorlik, emotsional madaniyat.

**THE IMPORTANCE OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION AND THE
APPLICATION OF INNOVATIVE METHODS IN THE MORAL AND ETHICAL
EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

Annotation. This article scientifically examines the necessity of moral and ethical education for primary school students and the implementation of existing methods. It also outlines the principles that should be followed in the cooperation between the family and the school.

Keywords: extracurricular activities, out-of-school activities, well-rounded individual, vocational skills, insight, psychologically healthy environment, humanity, family education, mutual cooperation, emotional culture.

**ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И ШКОЛЫ И ПРИМЕНЕНИЕ
ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ПРАВСТВЕННО-ЭТИЧЕСКОМ
ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация. В данной статье научно обоснована необходимость нравственно-этического воспитания учащихся начальных классов и рассмотрено применение существующих методов. Также приведены принципы, которые следует соблюдать в сотрудничестве семьи и школы.

Ключевые слова: внеклассная работа, внешкольная деятельность, всесторонне развитая личность, профессиональные навыки, проницательность, психологически здоровая среда, человечность, семейное воспитание, взаимное сотрудничество, эмоциональная культура.

Kirish. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda.

Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning

birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi.

Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulug'bek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim". Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosga ega. Bu meros bugungi avlodni, insonparvarlik, mehr- muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma'suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi.

Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq- atvori, dastavval o'z oilasida shakllanadi. Har bir ota-ona tarbiyaning o'ziga xos qonun-qoidalarni o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Bolani o'rab olgan muhitning hammasini odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi, o'stiradi. Oiladagi tarbiyaning samaradorligi, albatta ota-onaning qanchalik bilimli, madaniyatli bo'lishi, bola tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashlari, farzandlari kelajagini chuqur his etishlari, tajribada sinalgan milliy urf-odat va an'analardan unumli foydalanishlariga bog'liq.

Tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyati oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi, farzandlarimizni nafaqat bo'lajak ota-ona yoki aka-uka, opasingil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar posbon sifatida ham tarbiyalashga e'tibor berishimiz lozim. Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish - oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflil ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi. Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rni, mavqei hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va hujjatlarni, ma'muriy ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyatini o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllariga ega bo'lishlari zarur. O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashganlarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashtirgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlarni qamrab olgan holda, ularning yoshlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib ularni foydali ishlarga yo'naltiriladi. Bola tarbiyasida maktab o'rni ham juda beqiyosdir.

Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oila va maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo'ladi:

- ta'lim tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi.

- hamkorlik jarayoni sub'ektlarning teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.
- ota-ona farzandining maktabgacha bo'lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash.

Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatlardan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o'zining shart-sharoiti, atrof-muhitni taxlil qilib:

- o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona;
- maktab, oila, mahalla, jamoatchilik;
- oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab; yo'nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ'ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin..!

Ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini ta'minlashda ta'lim-tarbiya jarayonining birligi, uning maqsad va vazifalarining mushtarakligi katta ahamiyat kasb etgan holda o'quvchining ongini: sof ilmiy bilimlar bilan band etilganligi; sog'lom dunyoqarash bilan boyitilganligi; ijtimoiy hayot mazmuni uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlar bilan qurollantirilganligi; mehnatga oid ko'nikmalarga ega ekanligi; eng asosiysi ushbu bilim va ko'nikmalari bilan o'z vaqtini unumli va samarali tashkil eta olish qobiliyati yetarlicha shakllantirilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiya ishlarining turli mexanizmlari, shakl va vositalari mavjud bo'lib, ularni baravar va ommabop qo'llash yoki eng ta'sirchan usul deya faqat bir xil metodlardan foydalanib ish ko'rish tarbiya ishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Misol uchun, yuqori sinf uchun tanlangan tarbiyalov metodlari boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun murakkab va tushunarsiz kechib, samarasizlik kasb etadi. Ta'lim tashkilotida zamonaviy tarbiya faoliyatining asosiy xususiyatlari sifatiga quyidagilar kiradi:

- ma'naviy tarbiya ishlarini tashkil etish;
- sinfda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarining mazmunini nazorat qilib borish;
- ta'lim dasturlarining tarbiyaviy xarakteri;
- o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish tizimining yo'lga qo'yilganligi;
- tarbiya jarayonini tashkil etishda kadrlar salohiyati.

Shunga ko'ra, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida boshlang'ich maktablarida tarbiyaviy fanlardan tashqari o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishni quyidagicha tashkil etish orqali yuqori samaraga erishish mumkin:

- o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish va shu maqsadda ta'lim tashkilotlaridagi kutubxonalarni badiiy adabiyotlar bilan boyitish va o'quvchilarning shaxsiy oilaviy kutubxonasini shakllantirishga erishish;

- kino, teatr, konsert tamoshalari, sayohat, sayil va sport musobaqalarida ota-onalari bilan birgalikda rejali ishtirok etish;

- turli ko'rik tanlovlar, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va davlat bayramlarini mazmunli tashkil etish;

- o'quvchilarning qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli to'garaklar, klub yoki seksiyalar tashkil etish va ularga tarbiyasi muammoli bolalarni jalb qilish;

- mahalla kengashi yordamida milliy xalq hunarmanchiligi to'garaklari tarmoqlarini kengaytirish orqali novvoychiliklik, kashtachilik, naqqoshlik, duradgorlik va boshqa hunar turlariga jalb etish;

- yoshlar o'rtasida adabiyot, milliy rassomchilik, musiqa, raqs kabi san'at va madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish.

Ta'lim-tarbiya poydevori asosan maktabda qo'yiladi. Maktabning barcha funksional vazifalari va maqsadlarini amalga oshiruvchi kuch esa o'qituvchi va murabbiylardir. Maktab jamoasining ota-onalar bilan hamkorligi quyidagicha shakl va usullar orqali tartibga solinadi:

1. Ota-onalar, oilalar bilan yakkama-yakka ishlash. Bu usul orqali pedagog xodimlar oila va bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi, inobatga olishi orqali tarbiyaviy jarayonda to'g'ri va aniq yondashishga erishadilar. Tarbiyalashdagi muammoli jarayonlarda bu usul katta ahamiyat kasb etib, ijobiy natijani qo'lga kiritish imkonini beradi.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida ishlash turi. Bunga ota-onalarning guruhli va umumiy majlislari, anjumanlar va tadbirlar kiradi.

3. Tarbiyaviy ishlarda mahalla jamoatchiligi va jamiyatimizning tegishli faol a'zolari bilan hamkorlikda ish olib borish. Tarbiyalashning mazkur shakli milliy xususiyat kasb etadi. Aytaylik, oiladagi nizoli holatlarning farzand tarbiyasiga ta'siri pedagog-xodimlarning mashaqqatli mehnatida yanada murakkablik tug'diradi. Shu boisdan mazkur vaziyatlarni ijobiy hal qilish jamoatchilik asosida tartibga solishni talab etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'qituvchi-murabbiylar o'quvchilar bilan tinimsiz muloqot va munosabatda bo'ladilar, ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan o'zgarishlarni erta anglab, tushunib, qanday to'g'ri ta'sir eta olishga ijobiy faol yondashib hal etishlari mumkin. Buning uchun har bir pedagog-xodimdan yuksak pedagogik mahorat, kuchli psixologik va metodik tayyorgarlik talab etiladi. Oila-maktab hamkorligining samaradorligini ta'minlashda belgilangan asosiy vazifalar quyidagicha uslubiy asosga ega:

- ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish;

- ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

- qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim tashkilotlariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'yimaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- ta'lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning uzviy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash;

- o'quvchi-yoshlarning zararli odatlar yo'lga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini hamda ushbu sohaga oid normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish.

Hamkorlikda tarbiyalash metodikasining maqsad va vazifalari esa quyidagicha mazmunga ega bo'lishi lozim:

- bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishi;

- o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi;

- tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarni belgilay olishi;

- ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi;

- tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ta'sir etganini kuzatib, yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi;

- tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi".

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'z vaqtida, kechiktirilmay, bolaning pok qalbini saqlagan holda uzluksiz berib borilsagina yuqori samara bera oladi. Ota-onalarning farzand tarbiyasida umumiy mas'ulligi va javobgarligi teng bo'lib, ular bir birini qo'llab-quvvatlagan holda harakat qilishlari, bola tarbiyasida nazoratni teng ushlashlari lozim. Oilada mustahkam tarbiya topayotgan bolalar keyingi ta'lim-tarbiya maskanlarining faoliyati uchun ham murakkablik tug'dirmaydi. Aksincha, jamiyatning eng faol va namunali a'zosi sifatida mamlakatimizning istiqbolli maqsadlarining ro'yobchisiga aylanadilar.

Afsuski, ta'lim-tarbiya maskanlarining talablari farzandlarining manfaatlari uchun ekanligini tushunib yetmagan, o'qituvchilarning mashaqqatli mehnatlarini qo'llab-quvvatlamaydigan, ta'lim-tarbiyadagi sheriklikka amal qilmay, maktab tartib qoidalarini ko'p bor buzib, hurmatsizlik ko'rsatayotgan ota-onalar ham yo'q emas. Shu tariqa ba'zi bir ota-onalarning maktab faoliyatini qabul qilmasdan, asossiz tanqid qilaverishlari bilan ish ijobiy yechim topmaydi. Aksincha, farzandlarini o'qituvchiga nisbatan qarshi qo'yuvchilar o'zlariga nisbatan maktabning

faol ta'sirini yo'qotib zarar ko'radilar. O'qituvchining xatosini sezgan taqdirda ham uni o'quvchilarning ishtirokisiz maktab rahbarlari bilan muhokama qilish, o'rinli va foydali ishdir. Hech qachon o'qituvchini o'quvchi oldida hurmatsizlantirib bo'lmaydi. Chunki, bunday holatda bola tomonidan darsga va o'qituvchiga nisbatan tobesizlik vujudga kelish ehtimoli katta bo'lib, bu atrofidagi tengdoshlariga ham aks ta'sir qilishi mumkin.

Abdulla Avloniy "Har millatning saodati, tinchligi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir... tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur? degan savol keladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi -bu ona vazifasidir, ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasidir -bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir- deb javob bersak, bir kishi deyurki, "Qaysi ota-onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlari tarbiyani qaydan olib berurlar? Otasiga nima dersiz desak ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilimagan, ilmdan bexabar otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmak lozimdir" deya ota-onalik uchun ham kuchli tarbiya zarurligini, oilani katta hayot maktabi sifatida jamiyatni yuksak ma'naviyatli shaxs bilan ta'minlashdagi ahamiyati haqida chuqur qayg'urib o'tadi.

Oiladagi tinchlik, totuvlik va farovonlikni yuzaga keltiruvchi, oila mustahkamligini ta'minlovchi asos - ma'naviyat va axloqdir. Sadoqat, adolat, fidoiylilik, halollik, haqiqatgo'ylik, g'amxo'rlik, mehr-muruvvat va xushmuomalalik kabi axloqiy tamoyillar insoniylik qiymatining o'lchovi bo'lib, ushbu fazilat va hislatlarning ibtidosi oiladagi tarbiyaviy muhitning mahsuli sifatida farzand tarbiyasida mustahkam shakllanib borishi oila boshchilarining tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Birgina sadoqat tushunchasining zalvori yaratganga sadoqat, vatanga sadoqat, ota-onaga sadoqat, do'st-u yorga sadoqat, o'zligiga sadoqat, o'z kasbiga fidoiylilik ortidan ko'p ijobiy sifatlanishni yuzaga keltiruvchi, shaxsni mukammal qaror toptirish uchun zaruriy bo'lgan axloqiy ehtiyojlardandir. Yoki halollikdan oilada ko'nikma olmagan farzand tarbiyasidagi bo'shliqni keyinchalik boshqa tarbiya omillari orqali tuzatish murakkabdir.

Farzand tarbiyasida oilaning eng samarali va o'zgartirib bo'lmaydigan omil sifatida o'rni katta, lekin bu- bolaning har tomonlama rivojlanib, yuksalib, kamolotga yetishuvidagi yagona institut degani emas. Oilaning faol ta'siri, ta'lim tashkiloti va mahalla organlarining muofiqlashtirilgan birgalikdagi faoliyatlari bilan to'ldirilsagina tarbiyada katta samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizki yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lish, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilova N.G'. Boshlang'ich ta'limda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini shakllantirish. p.f.f.n. ... diss. - Nukus, 2018. - 152 b.
2. Jakbarov B.M. Komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy negizlari. IX-XII asrlar -T.: Tafakkur, 2011y. 62 b.
3. Safarova R., Musayeva U.Q. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiq etish yo'llari. -T.: Fan, 2005. - 255 b.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 2-jild: Toshkent, 1917. 55-bet.: www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. - T.: "O'qituvchi", 1975. - B. 239.